

Date: 3rd November-2025

MUTOLAA – TAFAKKUR CHARXI YOXUD “MARTIN IDEN” ROMANI
HAQIDA

Eshonqulova Baxtiniso Ahmad qizi

Qarshi davlat texnika universiteti

Nuriston akademik litseyi o‘quvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asar mutolaasi orqali inson hissiyotlari jumbushga kelib, tafakkur hukmiga zomin bo‘lishi “Martin Iden” romani misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: roman, tafakkur, Ruf Morz, Lizzi Konol, baxt.

Har birimiz, qaysi kasb egasi bo‘lmaylik, imkon va sharoitimizdan kelib chiqib, kitob bilan muayyan darajada muloqotda bo‘lamiz. O‘lchovli hayotimizning ma‘lum bir qismini shunga sarf qilamiz. Ammo qanday kitob o‘qish, uning ta‘sir va oqibatlari, umuman, nega kitob o‘qiymiz, shular haqida barchamiz ham chuqurroq o‘ylab ko‘rmaymiz⁵. Zero, xalqimiz turmush tajribasidan ma‘lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e‘tibor qaratishgan. Buyuk Navoiy-u Bobur, Amir Temur-u Ulug‘bek kabi alloma-yu ijodkorlarimiz, tojdor-u daholarimiz ma‘naviyati bolalikdan kitobga mehr qo‘yish bilan shakllangan. Ajdodlarimiz xalq ertaklari-yu dostonlarini tinglab tasavvur va tafakkur dunyosini, ruhiyat olamini boyitishgan. Adabiyot durdonalari – xoh xalq og‘zaki ijodi namunalari, xoh yozma asarlar bo‘lsin – xalqimiz qalbida yurtiga, ona tiliga, oilasiga, vatandoshlariga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy g‘urur, or-nomus, adolat-u insof, andisha-yu hurmat, olijanoblig-u saxovatpeshalik sifatleri shakllanishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan⁶.

Mutolaa bu har bir kitobxonni o‘zga dunyoga eltib, dunyoqarashini kengaytiradigan, hayotni teran anglashda ko‘mak beruvchi bir kalit kabidir. Har bir kitobxon bir asarni o‘qib tugatar ekan, unda undan ma‘naviy oziqa, ilohiy quvvat, ibrat oladi desak, adashmagan bo‘lamiz. Mutolaa davomida o‘sha asar ichida yashaymiz, undagi qahramonlar bilan goh kulamiz, goh yig‘laymiz, ba‘zan esa hayotiy saboq olamiz. Ana shunday o‘quvchini goh yig‘latib goh chuqur o‘yga tildiruvchi ijod mahsullaridan biri o‘tkir qalam sohibi, o‘z kitoblari bilan nafaqat Amerika, balki butun dunyo hamjamiyati ko‘nglidan joy olgan adib Jek London qalamiga mansub “Martin Iden” romanidir. Romanni o‘qish davomida undagi voqealar rivoji, obrazlarning hissiyotlarini shu qadar teran anglaymizki, bu uchun asrni mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘giran tarjimon – Qodir Mirmuhammedovga qancha ko‘p tashakkur bildirsak shuncha kam. Adibning “Martin Iden” asarida adib o‘z hayotini – qashshoq sobiq dengizchi Martin qiyofasida shakllantirgan. Qizig‘i shundaki, Jek London ham Martin kabi kambag‘al oilada dunyoga kelgan, mehnatkash sinf vakillaridan bo‘lgan, bolaligidan og‘ir mehnat qilgan va ikkisi

⁵ <https://yoshlikjurnali.uz/tarjima/kitob-mutolaasi-haqida/>

⁶ https://www.google.com/search?q=badiiy+asar+mutolaasi&rlz=1C1GGRV_enUZ985UZ985&oq=Badiiy+asar+muto&aqs=chrome.1.69i57j0i22i30j0i751j0i512i546l3.19974j0j4&sourceid=chrome&ie=UTF-8



Date: 3rd November-2025

ham boylar jamiyatini, soxta qadriyatlarni tanqid qilgan. Shuningdek, ularning hayotida “mehnat orqali o‘zini yaratish” g‘oyasi muhim o‘rin tutadi.

Voqealar rivojida Martin tasodifan aslzodalar tabaqasiga mansub bir oila bilan uchrashadi. Shu oilaning yagona qizi – Rufni sevib qoladi, Ruf ham unga mayl bildiradi. Martin esa Rufga loyiq bo‘lish uchun yozuvchi, adib bo‘lishga qaror qiladi. Lekin Ruf bunga qarshi chiqib, boshqa kasb tanlash kerakligini aytadi. Ammo Martin orzusidan, o‘zligidan kechib Ruf aytgandek, boshqa kasbni tanlamaydi, o‘z orzusi tomon olg‘a intilib, maqsadiga erishadi. Avvaliga juda ko‘p muvafaqqiyatsizlikka uchraydi, biroq keyin tinimsiz harakat va mehnat natijasida mashhur yozuvchiga aylanadi.

Asarning asosiy qahramoni Martin har doim adolat tarafdori bo‘lgan. U jamiyatning soxta qadriyatlarini tan olmaydi, sevgi orqali hayotning ma’nosini topishga harakat qiladi, hamma narsaga o‘z kichi bilan erishishga intiladi, ichida chuqur iztirob bilan yashaydi, ammo tashqarida kuchli va qat’iy ko‘rinadi. Boshidan o‘tkazgan kechinmalar, inosnlarning ziyokorligi, ijtimoiy hayotdagi tengsizliklar uni oxir-oqibat o‘z joniga qasd qilishga sabab bo‘ladi. Asarning yana bir bosh obrazlaridan biri Ruf Morz ham voqealar rivojida muhim o‘rin tutadi. U Martindan farqli o‘laroq badavlat oilada, madaniyatli muhitda voyaga yetgan. Dastlab u Martinning soddaligi, halolligi va samimiyligiga hayron bo‘ladi. Keyin u Martinni sevib qoladi, lekin bu sevgi ko‘proq orzu, xayolot va tashqi taassurotga asoslangan. Ruf go‘zal, bilimli, lekin ma’naviy jihatdan kuchsiz, shu sababli sevgan inson uchun jamiyat bosimiga qarshi chiqa olmaydi. U hayotni romantik orzular bilan emas, xavfsizlik va barqarorlik bilan o‘lchaydi va shu bois Martinni emas, o‘z tabaqasidan bo‘lgan kishini tanlaydi. Asardagi ikkinchi darajali, lekin muhim obrazlardan biri Lizzi Konollidir. Lizzi ham Martin kabi oddiy ishchi sinf vakilasi, o‘qimagan bo‘lishiga qaramay hayotni yaxshi tushunadi, vaziyatni va insonlarni to‘g‘ri baholay oladi. U Rufdan farqli ravishda Martinni chin yurakdan, hech qanday manfaatsiz sevadi, kambag‘al bo‘lishiga qaramasdan tashlab ketmaydi. U Martindagi xislatlarni Rufdan ko‘ra chuqurroq sezadi va shu xususiyatlari sababli Rufga qarama-qarshi personaj sifatida gavdalantirilgan. Mening fikrimcha, “Martin Iden” – bu shunchaki ijod mahsuli emas, balki bizga o‘zligimizni anglashni, hayotning asl mazmun-mohiyatini ko‘rsatib beruvchi ko‘zgu. Mutolaa mobaynida uni o‘qiyotgan kitobxon o‘zida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Jamiyat fikriga tobe bo‘lmaslikni, mehnatsevarlik, sabr, o‘ziga bo‘lgan ishonch orqali inson har qanday qiyinchilikni yengib o‘tishi mumkinligini o‘rganadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, boylik va shon-shuhrat – baxtning o‘zi emas, haqiqiy baxt – o‘zlikni yo‘qotmaslikda. Zero, adibning o‘zi aytganidek: “Eng katta fojia – insonning o‘zini yo‘qotib, jamiyat talabiga moslashib yashashidir”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jek London “Martin Iden” – Toshkent: Phoros Ambition nashri, 2024.
2. <https://yoshlikjurnali.uz/tarjima/kitob-mutolaasi-haqida/>
3. https://www.google.com/search?q=badiiy+asar+mutolaasi&rlz=1C1GGRV_enUZ985U_Z985&oq=Badiiy+asar+mutol&aqs=chrome.1.69i57j0i22i30j0i751j0i512i546l3.19974j0j4&sourceid=chrome&ie=UTF-8